


ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022 **2022**

Nocturne No. 20 in C Sharp Minor, Op. posth

Frédéric François Chopin

Vincent

**FRIDERIK SHOPEN**
(1810-1849)**NOYABR**
№46

CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.l, 2-uy.

+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uzwww.conferences.uz

**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
8-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-8**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-8**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 46-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 ноябрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 12 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Ҳафизова Мухлиса Абдиғани қизи ЭРКИН ВОХИДОВ ИЖОДИГА БИР НАЗАР.....	7
2. Feruza Rashidova VIKTORIYA DAVRI ADABIYOTIDA AYOLLARNING HAYOTIDA SPORT	9



АДАБИЁТ

ЭРКИН ВОҲИДОВ ИЖОДИГА БИР НАЗАР

Ҳафизова Мухлиса Абдиғани қизи

ЎзФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти

таянч докторанти

abbos.a_1990@mail.ru;

+998977389394

Аннотация: Мақолада Эркин Воҳидов ижодидаги айрим асарларнинг бугунги кундаги аҳамияти таҳлил килинади.

Калит сўзлар: ижод, шаклланиш, шеърият, ижодий жараён, муҳит, бадиий адабиёт.

Бадиий ижод оламига ошно ҳар бир инсон, бадиий асарни энг аввало, ўз ҳис туйғулари, дунёкараши билан идрок этади. Моҳир сўз санъаткорлари эса ўз халқи қалбининг элчиси ва тимсолидир. Халқнинг миллий характери, эзгу фазилатлари, туйғу ва орзу-истаклари ижодкорларнинг бадиий тафаккури орқали бутун инсониятга, шунингдек, келажак авлодларга адабий мерос бўлади. Ўзбек шеъриятининг йирик намоёндаси бўлган Эркин Воҳидов ана шундай ижодкордир. Шоир шеърларининг руҳи ва оҳангини, мазмун-моҳиятини, мақсад ва гоясини белгилаган мавзуларни ҳақида бугунги ёш авлодга онгига сингдириш бугунги куннинг долзарб масалаларидандир. Юртимизда жаҳон стандартларига рақобатбардош бўла оладиган таълим тизими йўлга қўйилган. Адабиёт дарсликларига киритилган на民政ияларимиз ва уларнинг асарлари юзасидан берилган бадиий таҳлиллар ёшлиларимиз онгига ижобий таъсир этиши, уларга сўз қудрати нималарга қодир эканлигини сингдира билишга хизмат қилмоқда. Зоро, давлатимизнинг Биринчи Президенти И.Каримов таъкидлаганидек, “...фарзандларимизни мустақил ва кенг фикрлаш қобилиятига эга бўлган, онгли яшайдиган комил инсонлар этиб вояга етказиш таълим – тарбия соҳасининг асосий мақсади ва вазифаси бўлиши лозим. Бу эса, таълим ва тарбия ишини уйғун ҳолда олиб боришни талаб этади” [1.61].

Ўзбек шеъриятининг атоқли намояндаси Эркин Воҳидовнинг дарсликларда ўрганилаётган шеър ва қасидалари ҳеч бир ўқувчини эътиборсиз қолдирмайди. Хусусан, “Инсон” қасидаси, “Яхшидир аччиқ ҳақиқат”, “Ўзбек Навоийни ўқимай қўйса”, “Ўлмас эди балки одамзод” каби шеърларида умуминсоний гоялар талқини яққол намоён бўлган. Шоирнинг “Инсон” қасидасидаги ушбу сартларга эътибор қаратайлик:

Собиту сайёрада

Инсон ўзинг, инсон ўзинг.

Мулки олам ичра бир

Хоқон ўзинг, султон ўзинг... [2.410]

Унда бу ёруғ оламда ягона онгли мавжудот ва оламнинг ҳоқони ҳам султони ҳам ўзинг, яъни Инсон эканлиги таъкидланади. Демак, бу оламда қандай йўлдан юриш ва қайси амалларни бажариш ёлғиз инсоннинг ўз қўлида экан. Шоир талқинида инсоннинг улуғлиги ва ҳар нарсага қодир эканлиги, яхшилик ҳам ёмонлик ҳам инсоннинг қўлидан келиши мумкинлигини моҳирлик билан ифодалаган.

Бунда оқ бирла қора,

Зулмат, зиё шоҳу гадо,

Жанг қилурлар доимо,

Ул ён ўзинг, бул ён ўзинг.

Гоҳ адолат боғида,

Пири адоват гоҳида,



Ўз дилинг даргоҳида
Шайтон ўзинг, ғилмон ўзинг [2.411].

Шоир ижоди юксак тараққий этган, “Севмаган дилда севимли сўз бўладими? Эркин Воҳидов шеъриятини муҳаббат билан мутолаа қилиб юрадиганлар унинг сўзи тоза, тиниқ, равшан ва ичдан нурланиб туришини бир оғиздан тан оладилар. Нафислик ва зарофат, шаффоғлиқ ва дилсўзлик шоир сўзининг табиатига айланган” [3.9].

Шоир ижодига мурожаат қиласар эканмиз, бугунги ёш авлод онгу шуурида инсоний ғояларни сингдиришимиз, унинг нақадар серқирра ва кенг мазмун касб этганлигини таҳлил қилиб халқона сўзлар билан бадиийликни англатишимиз лозим.

Яхшидир аччик ҳақиқат,
Лек ширин ёлғон ёмон,
Ул ширин ёлғонга мендек
Алданиб қолғон ёмон...

Айтгали аччик азобинг
Бўлса дилдош яхшидир,
Сўз демай ўтли аламни
Жонингта солғон ёмон [2. 414].

“Ҳар бир инсоннинг ички ва ташқи тузилиши ўзига хос бир оламки, унинг бетакрорлиги ўзлигига мужассам этилган. Шунга асосан ҳар бир санъаткорнинг олами – ҳаётий тажрибаси, билим даражаси, диди, гўзалликни кўра билиши, тасаввuri, хаёлот дунёси, қалб кўзи ўзигагина тегишлидир ва ана шу ўзлик унинг ҳар бир асарида аксланади” [4.214].

Инсонга қанчалик оғир ботмасин, барибир ҳақиқатни айта олиш лозимлигини, ёлғон билан ҳам ўзини, ҳам ўзгаларни алдамасдан ҳақиқий инсон бўлиб яшаш лозимлиги, инсон учун ўз дардини айтишга дилга яқин кишиси бўлиши кераклиги, агар инсон ҳамма дардини ичига солиб ўзига дилдош топмаса ўзини азоблайди дея таъкидлайди, шоир. Ҳеч бир инсондан узоқ бўлмаган бу ҳолатлар нақадар жозибали ифода топган.

АДАБИЁТЛАР:

1. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008.
2. Тўхлиев Б., Шермуродов Т., Исаева Ш., Адабиёт мажмуя (академик лицейларнинг учинчи босқич ўқувчилари учун дарслик) –Т.: Чўлпон, 2010
3. Эркин Воҳидов. Сайланма. –Т.:Faфур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1986
4. Умиров X. Адабиёт қоидалари. –Т.: Ўқитувчи, 2010.



VIKTORIYA DAVRI ADABIYOTIDA AYOLLARNING HAYOTIDA SPORT

Feruza Rashidova

Namangan Davlat Universiteti
Ingliz tili va adabiyoti kafedrasasi o'qituvchisi
feruza.rashidova.uz@gmail.com

Maqolada Viktoriya davri adabiyotida ingliz ayollarining hayotiga sportning kirib kelishi va bu ushbu davr jamiyati tomonidan qanday qabul qilinishi, ayollar kiyimi isloh qilinishi tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: Ayol va sport, rinkomaniya, kroket, ayollar va tennis, velosport, ayollar sport kiyimi.

СПОРТ В ЖИЗНИ ЖЕНЩИН ВИКТОРИАНСКОГО ПЕРИОДА

Феруза Рашидова

Наманганский Государственный Университет
Преподаватель кафедры английского языка и литературы
feruza.rashidova.uz@gmail.com

В статье анализируется внедрение спорта в жизнь англичанок викторианской эпохи, реформу женской одежды и восприятие всего этого обществом того времени.

Ключевые слова: Женщины и спорт, ринкомания, крокет, женщины и теннис, велоспорт, женская спортивная одежда

SPORTS IN THE LIVES OF VICTORIAN WOMEN

Feruza Rashidova

Namangan State University
A teacher, Department of English Language and Literature
feruza.rashidova.uz@gmail.com

The article analyzes the introduction of sports into the life of English women of the Victorian literature era, the reform of women's clothing and the perception of all this by the society of that time.

Key words: Women and sports, rinkomania, croquet, women and tennis, cycling, women's sportswear

Angliyaning qirolicha Viktoriya hukmronlik qilgan davrda ma'lum ijtimoiy qatlama vakillarining turmush tarzi biri-biriga nisbatan sezilarli darajada farq qilsa-da, umuman olganda, britaniyalik ayollar o'z mamlakatining qonuniy jihatdan kamxuquqli fuqarolari bo'lib qolishgan: masalan, ularning meros va mulkka bo'lgan huquqlari jiddiy cheklangan edi, ajrashish tartibi erkaklar uchun ko'plab afzalliklarni taqdim etdi. Qizig'i shundaki, qirolichaning o'zi ayollarning oilada bo'ysunuvchi rolida bo'lishi tarafdoi bo'lgan va ularni siyosiy huquqlar berish g'oyasiga qarshi chiqqan. Ideal ayol, g'amxo'r rafqa va sezgir ona obrazni Viktoriya davri ko'plab adabiyotida o'z aksini topgan; protestant axloqi ham taqdiri farzand tug'ish va uning tarbiyasi bo'lgan ayolning erkinligini cheklash zarurligini ta'kidladi. Shu munosabat bilan Viktoriya davri Angliyasida ayollar va siyosat, ayollar va ta'lif, ayollar va oillava hatto ayollar va sport haqida keng muhokamalar olib borildi. Ayollar va sport masalasiga kelganda shuni ta'kidlash kerakki, XVIII asrda turli ijtimoiy sinf vakillari ham tomoshabin, ham bevosita ishtirokchi sifatida sport tadbirdari faol ishtirok etishdi. Biroq, XVIII asrning oxirida vaziyat o'zgardi: ayollar deyarli o'z uylarini tark etmay qo'ydilar, sport esa faqat erkaklar mashg'ulotiga aylandi, «zaif jins» vakilalari uchun tavsiya etilmaydigan sohaga aylantirildi va ularga jismoniy va intellektual imkoniyatlari cheklangan «nogironlar» roli tayinlandi. Yangi mafkura doirasida haqiqiy ayol, nozik «uy farishtasi» bo'lib, ushbu mafkuraga kura kuchli tana va metin sog'liqga ega bo'lishi mumkinmas edi. Sog'liq nozik ayol tabiatiga noloyiq, beadab narsa sifatida qaraldi. Adolat



yuzasidan shuni ta'kidlaymizki, zodagon doiralar vakilalari sanoat va tijorat sinfiga mansub zamondoshlaridan farqli o'laroq, jamoat hayotida, jumladan, sport tadbirlarida faolroq ishtirok etganlar (ot minish yoki ov qilish - bu ayollar uchun ishtirok etishi mumkin bo'lgan ko'ngilochar sport tadbirlari cheklangan doirasi bo'lib, boshqa sport tadblirlarida faqat tomoshabin sifatida qatnashishlari mumkin edi, ammo bu yerda ham ularning hatti-harakatlari juda cheklangan va qat'iy tartibga solingandi). Faqat 1860-yillarda o'rta sinf vakilalari asta-sekin o'zлari uchun ko'ngilochar sport tadbirlari dunyosini kashf qila boshladilar.

Nozik ayol tanasi uchun munosib va zararsiz deb tan olingen birinchi qonuniy sport turi bu kroket bo'lib, u jismoniy kuch, qimmatbahо jihozlar yoki o'ynash uchun maxsus kostyumni talab qilmasdi, bundan tashqari, bu o'yin erkaklar va ayollar o'rtasidagi aloqalar uchun yangi imkoniyatlar ochdi, bog'larda yoki hatto binolar ichida birga o'ynashi mumkin edi. Shunday qilib, ilk bora o'rta sinfga vakillari bo'lgan erkaklar va ayollarni bir maydonda va ancha norasmiy sharoitda (ilgarilari faqat biror rasmiy tadbirda yoki teatrda uchrashgan) birlashtirgan kroket eng muhim ijtimoiy funksiyani bajargan.

1875 yilda Angliyada «rinkomaniya» (inglizcha «rink» - kon'kida uchish maydonchasi) mashhurlikka erishdi, ingliz xonimlari qisqa vaqtga, lekin juda jiddiy tarzda kon'kida uchish bilan qiziqdilar: «Ochiq osmon ostidagi turli xil maydonchalar va binolar shoshilinch ravishda ularning ehtiyojlariga moslashtirildi, chunki ular qishda ham, yozda ham kon'kida uchishar, shu bilan birga qizlarning asosiy maqsadi mashqning o'zi emas, balki qarama-qarshi jins vakillari bilan tanishish imkoniyati edi». Ammo tez orada kon'kilar modadan qoldi va xonimlar ayol tomoshabinlarning sport qiziqishlari markaziga aylangan tennis o'ynash uchun raketkalarni sotib olishni boshladilar. Aksariyat sport turlaridan farqli o'laroq, tennis jamiyat tomonidan kuchli rag'batlantirildi va boshidanoq ayolning nozik tanasi uchun zararsiz faoliyat sifatida tan olindi. Tennis korti (shuningdek, kroket yoki kon'kida o'ynash uchun maydonlari) erkaklar va ayollar uchun uchrashuv joyiga aylandi, bundan tashqari tennis o'yinida qatnashish bo'lajak tur mush o'rtog'ini qidirayotgan yosh qizlar uchun birinchi qadam bo'lishi mumkin edi. Tennis kabi «zararsiz» sport turiga qizishdan kriket, futbol va xokkey singari kuch talab qiladigan jamoaviy sport turlariga o'tish kuzatildi, bu ishtirokchilardan o'yinga, jismoniy faollikka va tana harakati erkinligiga ko'proq e'tibor qaratishlarini talab qildi. Tennisdan farqli o'laroq, doimo faqat erkaklar o'yini hisoblangan kriketni ayollar o'ynashi jamiyatda o'ta salbiy reaksiyaga sabab bo'ldi. Kriketchi ayollar ko'p bora masxara mavzusiga aylangan, ularni «erkaksifatlik»da ayplashgan va sog'lig'iga tiklab bo'lmas ziyon olib kelishi bilan tahdid qilishgan: «Yuz va qomatning go'zalligi, ayniqsa, ayol uchun juda muhim, ammo qizlarning kriket, velosiped xaydash va xokkey kabi og'ir sport turlariga haddan tashqari qiziqishi ongi va tashqi ko'rinishiga eng yomon ta'sir o'tkazadi. Qizlar me'yorida ot minsin, kon'kida uchsin, raqsga tushsin va tennis o'ynasin, jamoaviy, kuch talab etiladigan sport turlarini erkaklarga qoldirishsin».

Ayollar sport tadbirlarida tobora faol ishtirok etishlariga qaramay, ularning harakatlari hali ham libos bilan cheklangan va tangligi edi, chunki sport paytida ayollar har qachongidan ham ko'proq «xonim kabi» ko'rinishi va harakat qilishi kerak edi. O'yin vaktida ayollik ayniqsa muhim edi, chunki sport an'anaviy ravishda erkaklar faoliyati sohasiga tegishli edi. Tennis yoki xokkey o'ynayotgan xonim «uzun yengli va tik yoqali kuylakda, to'pig'igacha cho'zilgan yubkada chigallashib, baland poshnali oyok kiyimida qoqilib, shlyapasini qo'li bilan ushlab, tashqi ko'rinishi bilan dekorativ rol o'ynab otaning yoki arning muvaffaqiyati va farovonligini namoyish etishardi. Sport uchun mutlaqo yaroqsiz bo'lgan ayollar kiyimini isloh qilish zarurligi haqida ovozlar tobora ko'proq yangray boshladi. Qulay va ihcham ayollar sport kiyimlari masalasi faqat 1890-yillarning o'rtalarida ommaviy velosportga qiziqish keskin ortishi bilan bog'liq holda jiddiy jamoatchilik muhokamasiga aylandi. Velosiped haqiqatan ham Viktoriya davri qadriyatları tizimining eng mustahkam asoslarini larzaga keltirgan va odamlarni va ularning dunyo va o'zлari haqidagi g'oyalarni o'zgartirgan haqiqiy ijtimoiy inqilobga aylandi, chunki ayollar erkaklardan keyin o'zlashtirgan boshqa sport turlaridan farqli o'laroq, velosiped haydash har ikki jins vakillari uchun mutlaqo yangi faoliyat edi. Bu birinchi navbatda o'rta sinf vakilalariga tegishli bo'lib, ular o'sha vaqtga qadar harakatchanlikdan mahrum bo'lgan va aslida zodagonlardan farqli o'laroq, sport tadbirlaridan biroz chetlatilgan edi.

Tabiiyki, ayol sport faoliyatiga karshi bo'lganlar mustaqil velosiped haydash ayol tanasining imkoniyatlaridan oshib ketishi va o'nglab bo'lmas (farzand tug'ish qobiliyatini yo'qotishgacha kabi) oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ta'kidladilar. Shunisi e'tiborga loyiqliki, bunday



bayonotlar Viktoriya davri odamlarining faol harakatlarni amalga oshirishga va mustaqil qarorlar qabul qilishga qodir bo‘lmasan, tana va ruhda kuchli erkakning doimiy qo‘llab-quvvatlashiga muhtoj bo‘lgan zaif, kayfiyati o‘zgaruvchan ayol haqidagi an'anaviy g‘oyalariga to‘liq mos keladi. Ayollar sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamma narsa oxir-oqibatda asosiy qadriyati oila bo‘lgan Viktoriya davri turmush tarzining asoslarini buzishiga olib kelardi. An'anaviy qadriyatlar tarafidorlari bunday xavf omillariga sport bilan shug‘ullanishni bog‘lashlari aniq edi.

Viktoriya davridagi Angliyada gender rollari o‘rtasidagi tafovut salkam qonun darajasiga olib chiqilgan bo‘lib, odob-axloq qoidalari bo‘yicha ko‘plab darsliklarda erkak «jamiyatga tegishli» va o‘z ishlari va oilasiga uydan tashqarida g‘amxo‘rlik qiladi, ayol esa «uy hayoti uchun yashaydi», shuning uchun har bir ayolning hayotidagi markaziy va hal qiluvchi o‘rin faqat farzandlarning tug‘ilishi va tarbiyasi hisoblanadi turmushga chiqmagan qizlar esa uydan tashqarida qarindoshlaridan biri bilan xamrohlikda bo‘lishi kerak.

Biroq sport, birinchi navbatda velosipedda sayr qilish mulkdor qatlamlarning yosh vakilalarini oilaning total nazoratidan ozod qildi. Shunga qaramay, velosiped tufayli haqiqatga aylangan harakat erkinligi hammaga ham ayol uchun shubhasiz ne’mat bo‘lib tuyulmadi. «Qirolicha» («The Queen», 1861-1967) jurnali mualliflaridan biri E.Lintonga hamohang velosipedchilarni «na uyat, na qo‘rquvni bilmaydigan qattiq, tajovuzkor va takabbur jonzotlar» deb ta’riflagan

Bir qarashda jiddiy bo‘lmasan, ayollar va velospert, ayollar uchun jismoniy mashqlarni asoslash, ularning erkin harakat qilishlari ayollar liboslarini isloh qilish haqidagi munozaralar, pirovardida, boshqa bir muhimroq muammoni hal qilish uchun qandaydir «bosholang‘ich nuqta» bo‘ldi, ya‘ni, ayolning jamiyatidagi roli va o‘rnini, uning jismoniy va ma’nnaviy imkoniyatlari, negaki Viktoriya davri jamiyatidagi ayol (birinchi navbatda, uning faol ijtimoiylashuviga hissa qo‘sigan sport tufayli) asta-sekin tubdan boshqacha maqomga ega bo‘ldi: «uy farishtasi» o‘rnini «yangi ayol» vakilasi, sog‘lom va rivojlangan intellekt egasi bo‘lgan erkin ayol egalladi.

Adabiyot:

1. Rashidova F.R. The status of women in the Victorian Era. - ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, v.12, Issue 04, April 2022, 728-731
2. Hargreaves J. The Victorian Cult of the Family and the Early Years of Female Sport. - London; New York, 2002
3. Park J. Sport, Dress Reform and the Emancipation of Women in Victorian England. - The International Journal of the History of Sport, 1989

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 8-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шоҳруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.11.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000